

2025-yil 18-oktabr kuni soat 12.00 da Sobirovaning dissertatsiyasi muhokamasi.

E'LON

**2025-YIL 18-OKTABR KUNI SOAT 12.00 DA O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMUY DARAJA BERUVCHI**

**PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMUY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI**

KUN TARTIBI:

Sobirova Oygul Alimovnaning 13.00.02 – Ta'lrim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta'limi) ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

*Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A"
binosi,*

2-qavat, majlislar zalida 12.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

2025-yil 18-oktabr kuni soat 10.00 da Sobirov Navro'zbekning dissertatsiyasi muhokamasi

E'LON

**2025-YIL 18-OKTABR KUNI SOAT 10.00 DA O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMUY DARAJA BERUVCHI**

**PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMUY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI**

KUN TARTIBI:

Sobirov Navro'zbek Xakimjon o'g'lining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta'limi) ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'lim muassasalari talabalarida sozandalik mahoratini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

*Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A"
binosi,*

2-qavat, majlislar zalida 10.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

2025-yil 28-avgust kuni soat 10.00 da Bexzod Maxammadismon o'g'lining dissertatsiyasi muhokamasi.

E'LON

2025-yil 28-avgust kuni soat 10.00 da

**0'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI**

KUN TARTIBI:

Mamatqulov Bexzod Maxammadismon o'g'lining 17.00.01 – Teatr san'ati ixtisosligi bo'yicha "**Teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari**" mavzusidagi san'atshunoslik bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

Majlis 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,

2-qavat, majlislar zalida 10.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

2025-yil 28-avgust kuni soat 12.00 da Sayfullo Turgunovichning

E'LON

2025-YIL 28-AVGUST KUNI SOAT 12.00 DA

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PHD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH MAJLISI
BO'LIB O'TADI**

KUN TARTIBI:

Ikramov Sayfullo Turgunovichning 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Madaniy-ommaviy tadbirlarning yoshlarda ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi o'rni". mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,

2-qavat, majlislar zalida 12.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida oliy ta’lim muassasalarida “Ziyolilar bog’”lari tashkil etildi

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashabbusi bilan Jizzax politexnika instituti hududida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Ziyolilar bog’i”da ko’chat ekish marafoniga rasmiy start berildi.

□Daraxt ekish marosimida O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o’quv ishlari bo'yicha prorektori Sobir Madiyev ham qatnashdi.

Shuningdek, asosiy tadbir bilan bir vaqtda O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti jamoasi ham “Bu bog’lar bir bog’lar bo’ladi...” shiori ostida bahor mavsumida ko’chat ekish marafonida ishtirok etdi hamda institut hovlisiga daraxt ko’chatlari o’taqazildi.

Bugun O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

rektori, professor Nodirbek Sayfullayev O'zbekiston davlat filarmoniyasi Bosh direktori Anvar Tojiboyev bilan uchrashuv o'tkazdi.

Samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda O'zbekiston davlat filarmoniyasi o'rtasida hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunlariga ko'ra, ikki tashkilot o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Unda tomonlar o'rtasida o'zaro manfaatli ilmiy-ijodiy va madaniy aloqalarni o'rnatish, malakali mutaxassislarni ilmiy-pedagogik jarayonga jalg etish, orkestr kutubxonasidan institutning talabalar o'quv orkestri repertuarini boyitishda foydalanish, innovatsion ilmiy-tadqiqot hamkorligini yo'lga qo'yish, professor-o'qituvchilar va mutaxassislarni jalg qilgan holda qo'shma ilmiy-ijodiy tadbirlar o'tkazish, mahorat darslariga taklif etish va o'tkazish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi integratsiya jarayonini takomillashtirish, cholg'u ijrochiligi uslublari bo'yicha yetakchi sozandalar tajribasini o'rganish, yetakchi professor-o'qituvchilar, qo'shma konsert dasturlarini tayyorlash va o'tkazish, madaniy va ijodiy tadbirlar, shu jumladan, ko'rik-tanlovlari, festivallar, kontsert dasturlarini hamkorlikda tashkil etish va ularda faoliyatlarni ishtiroy etish, "Cholg'u ijrochiligi" ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bitiruvchilarining Yakuniy Davlat attestatsiyasini ish beruvchi tashkilot sifatida filarmoniyada o'tkazilishini ta'minlash, o'quv, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik hamda ma'naviy-axloqiy va

tarbiyaviy ishlarda hamkorlik qilish, magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy (ijodiy) ishlar mavzularini hamkorlikda shakllantirish va tayyorlash kabi masalalar qamrab olindi.

Shundan so'ng 0'quv teatrida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda O'zbekiston davlat filarmoniyasi Davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Yoshlik taronalari" deb nomlangan konsert dasturi namoyishida bирgalikda ishtirok etishdi.

Konsertda "Uvertyura", "Allegro appassianato", "Sozsiz qoshiq", "Valenki", "Rondoletto", "Ey Sabo", "Lezginka", "Oblivion", "Mash botoy", "Tofon", "Diltorim", "Artsax" kabi o'zbek va jahon musiqasi namunalari mahorat bilan ijro etildi hamda tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi

**PhD. 08/28.08.2020. San. 121.01
raqamlı Ilmiy Kengashda ikki
nafar tadqiqotchilarning
san'atshunoslik fanlari**

bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining himoyasi bo'lib o'tdi.

Himoya avvalida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev har bir sohaning taraqqiyoti uning ilmiy jihatdan qanchalik keng tadqiq etilganiga chambarchas bog 'liq ekanligini alohida qayd etdi. Shuningdek, institutda ham bu borada qilinayotgan ishlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Ma'lumot o'rnidida aytish joizki, 2024-yilga nazar tashlaydigan bo'lsak, professor-o'qituvchilarimiz 4 ta professor, 21 ta dotsent, jami – 25 ta ilmiy unvonga, 2025-yilning yanvar-fevral oylarining o'zida 3 ta professor, 7 ta dotsentlik jami – 11 ta ilmiy unvonga ega bo'ldilar. 2024 yil 1 ta DSc, 12 ta PhD himoyasi o'tkazildi.

Ilmiy Kengashda dastavval Do'sanov Rahimjon Raimqulovichning 17.00.01 – Teatr san'ati ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda "bir aktyor teatri"ning shakllanishi va uning badiiy asoslari" mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya himoyasi o'tkazildi.

Ilmiy tadqiqot ishida quyidagi ilmiy yangiliklar asoslab berilgani ta'kidlandi: O'zbekistonda "Bir aktyor teatri"ning paydo bo'lishi va rivojlanishida qadimgi davrning yakka ijrosi, baxshilar bir aktyor teatri (VII-IX asrlar), an'anaviy teatrtdagi masxaraboz va qiziqlar bir aktyor teatri (XVIII-XIX asr), badiiy yaxlit shakldagi bir aktyor spektakli (XX asr), bir aktyor teatrining 3D formatdagi gologramma shakli (XXI asr) kabi bosqichlari aniqlanganligi;

"Bir aktyor teatri" spektaklini ijro etgan aktyorlarning repertuarlari, ular ijrosidagi dostonlar, yakka ijrodagi tomoshalar, XX asrdagi she'riy kompozitsiyalar, bir aktyor

ijrosidagi spektakllar dramaturgiyasining badiha, grotesk kabi badiiy-g'oyaviy jihatlari, rejissyorning o'ziga xos ramziy, metafora, gologramma kabi uslublari aniqlanganligi; 2019-yil Markaziy Osiyoda ilk bor zamonaviy 3D formatdagi gologramma teatri O'zbekistonda tashkil etilgani va bu yo'naliш bilan texnologiyalar imkoniyatidan foydalanib, yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash mumkinligi "Buyuk Temur" nomli spektakl namoyishi misolida isbotlanganligi; milliy "Bir aktyor teatri" – davr talabidagi g'oyaviy jihatdan puxta repertuarni tezkor yarata oladigan, aktyorning serqirra mahoratini namoyon qiladigan, ko'chib yurishga qulay ijod maskani ekanligi, o'z g'oyaviy repertuari bilan milliy iftixor hamda g'ururni mustahkamlaydigan, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantiradigan, yoshlarni yot g'oyalardan himoyalaydigan spektakllar namoyish eta olishi dalillanganligi.

Dissertantning ishi falsafa fanlari nomzodi, professor Mamur Umarov ilmiy rahbarligida tayyorlangan.

✓ Dissertasiya ishi muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Rektor va yoshlar

Sharqona yangi yil boshlanadigan qutlug' kun – Navro'zi olam asrlar davomida bahor, ezgulik, mehr-oqibat, mehnat va bunyodkorlik ramzi sifatida el-yurtimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutib kelmoqda.

2025-yilgi Navro'z bayrami «Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!» shiori ostida nishonlanadi. Ayni paytda yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 21-fevralda qabul qilingan "2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori asosida ushbu ayyomga tayyorgarlik davom etmoqda.

E'tiborli jihatni, mazkur shodiyonalarga tayyorgarlik jarayonlarida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari ham faol ishtirok etishmoqda.

Bugun erta tongdan institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bayram tanatanalariga tayyorgarlik jarayonida ishtirok etayotgan institut talabalari bilan uchrashdi.

Unda ushbu jarayon ijodkor talabalarining kelgusi faoliyati uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligi yana bir bora ta'kidlandi. Qolaversa, talabalarning tayyorgarlik jarayonidagi faolliklari ham e'tirof etilib, ularga yangi sport kostyumlari va kepkalari taqdim etildi hamda moddiy rag'bat ham berilishi e'lon qilindi.